ISSN 2181-7839

# XALQ TA'LIMI

## PUBLIC EDUCATION

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
**ILMIY-METODIK JURNALI**

**SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL**
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

3
2020

www.xtjurnali.zn.uz
https://t.me/xalqtalimijn

ISSN 2181-7839

# XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

**Muassis:**
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

# PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2020**

**3-son**
(may-iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

R. Raxmonov 78 O'quvchi-yoshlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda o'rta masofaga yugurish dinamikasini tahlil qilish ahamiyati

## MUSIQA VA SAN'AT TA'LIMI

S. Azimov 82 Kasbiy fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining mahoratlarini shakllantirish uslublari

D. Mamatov 86 Geometrik obrazlar vositasida o'quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish va uning psixologik asoslari

## MAKTABGACHA TA'LIM

D. Kurbanov, A. Toshev, Z. Yusupova 92 Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari

G. Hasanova 96 Maktabgacha yoshdagi bolalarda huquqiy ongni shakllantirish

## PSIXOLOGIYA

Sh. Abdullayev, A. Toshev 99 O'smirlar o'rtasidagi nizolar va ularni bartaraf etishda ijtimoiy institutlar bilan hamkorlikning o'rni

## XALQARO TAJRIBA VA TA'LIM INTEGRATSIYASI

G'. Salimov, N. Bozorova 103 Maktabgacha ta'lim muassasasida jismoniy tarbiya faoliyatini tashkil qilishda xorijiy tajribadan foydalanish ahamiyati

## ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Ш. Кадиров, Х. Курбанов 109 Важность уроков физической культуры в пропаганде здорового образа жизни у детей

Ф. Фазлиддинов, М. Тошев 112 Физическая культура и спорт как фактор формирования социального здоровья молодёжи

Д. Муратов 116 Профилактика вредных привычек подростков средствами педагогики физической культуры

Н. Назарова, Н. Орипова 122 Особенности направления детей на спортивную деятельность

А. Ибрагимов 126 Особенности развития интеллектуальных способностей школьников на уроках физического воспитания

Т. Чориев, К. Кобилжонов 130 Роль речевого этикета в воспитании подрастающего поколения

## МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Р. Хасанов, Я. Файзиев, М. Тураев 135 Репрезентация принципов и методов физического воспитания в вузах

У. Фарманов, Ш. Давронов 139 Методика применения игровых упражнений для совершенствования техники бросков на уроках баскетбола

**Sanjar AZIMOV,**
Buxoro davlat universiteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

# KASBIY FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISH USLUBLARI

**Annotatsiya**

Maqolada chizmachilikni o'qitish metodikasi va unda odamning portretini yaratish masalalar rasmda plastik anatomiyaning o'rni o'rganilgan. Shuningdek, tasviriy san'at qonuniyatlari, kompozi sion, istiqbolli, hajmli obyektlarni chiziqli konstruktsiyalashlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar**. San'at, texnika, portret, plastik anatomiya, istiqbolli, konstruktiv qurilish.

Статья посвящена методике преподавания учебного рисунка где рассматриваютс вопросы создания портрета человека, роль пластической анатомии в учебном академическом рисунке, расскрывается законы изобразительного искусства: композиция, перспектива линейно констуктивное построение объемных предметов.

**Ключевые слова.** Изобразительное искусство, методика, портрет, пластическая анатомия, перспектива, конструктивное построение.

The article is devoted to the method of teaching the drawing, which deals with the creation of a portrait of a man, the role of plastic anatomy in academic drawing, the laws of fine art are uncovered composition, perspective, linear constructive construction of voluminous objects.

**Key words.** Fine art, technique, portrait, plastic anatomy, perspective, constructive construc-tion.

Keyingi vaqtda zamonaviy o'zbek tasviriy san'atiga ko'plab yosh iste'dod egalari kirib kelayotgani, turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkorlar, xususan, rassom va haykaltaroshlar, xalq ustalari ijodida yangicha mazmun va shakl, jahon san'at maydonida munosib o'rin egallashga, intilish tendensiyalarining ko'zga tashlanayotganini ijobiy baholash lozim.

Mamlakatimiz o'zining boy badiiy merosi, jahon san'ati va madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan qadimiy sivilizatsiya o'chog'i sifatida milliy badiiy an'analarning o'ziga xosligini saqlab kelayotgani dunyoning yetakchi san'at mutaxassislari tomonidan e'tirof etilgan.

Bugungi kunda tasviriy va amaliy san'at, dizayn sohasida samarali faoliyat olib borayotgan, milliy madaniyatni avaylab asrab va targ'ib qilayotgan, ma'naviy boy, jismonan baquvvat, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashga munosib hissalarini qo'shayotgan pedagoglar, rassom-ijodkorlarni mamlakatimiz Prezidenti doimo qo'llab-quvvatlab kelmoqdalar. Shuningdek, "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarorlari hamda mazkur masalaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan yana bir tashabbus e'lon qilindi. Unda yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan 5 ta tashabbusni amalga oshirish masalalari ham yuqroidagi fikrimizni tasdiqlaydi. Yoshlarni madaniyat va san'at muassasalariga keng jalb etish, unga muvofiq, 2019-2020-yillarda 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan 2 million nafar yoshlarni madaniyat va san'atga jalb etish bo'yicha hududiy "yo'l xarita"larini tasdiqlash ko'zda tutilgan. Shuningdek, bolalar musiqa va san'at maktablarida qo'shimcha sinflar, madaniyat markazlarida cholg'u, xonandalik, tasviriy san'at to'garaklari, havaskorlik teatr jamoalari va bolalar ansambllarini tashkil etish belgilangan. Yangidan quriladigan, rekonstruksiya va kapital ta'mirlanadigan hamda jihozlanadigan madaniyat markazlari manzilli ro'yxati ham shakllantirilgan.

Bugungi kunda Respublikada faoliyat olib borayotgan pedagogika oliy o'quv dargohlarining "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi", bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejasida kasbiy fanlar blokidagi qalamtasvir va 2 blokda plastik anatomiya fani mavjud bo'lib, keyingi vaqtlarda mazkur fanni o'tishda ba'zi qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Talabalarga saboq berishda, mashg'ulotlarni metodik jihatdan tashkil etishda ba'zi bir muammolar mavjud. Ular quyidagicha:

1. Fanni o'tishda moddiy texnik baza yetarli darajada emas.
2. 3,4 kurslarda dasturdan joy olgan mavzularda qiyofachini o'ziga qarab tasvirlash mashg'ulotlarida "naturachi" (qiyofachi)lar tashkil etilmagan.
3. Inson portreti, qiyofasini tasvirlash uchun zarur bo'lgan "plastik anatomiya" fani oliy o'quv dargohlarining boshqa kafedralari tomonidan olib boriladi.
4. Azaldan tasviriy san'atda asosiy va murakkab mavzu bo'lib kelgan va bundan keyin ham shundayligicha qoladigan inson portreti va gavdasini amaliy mashg'ulotlarda ishlash uchun kerak bo'ladigan Antik davr gips bosh namunalari: Apollon, Venera, Diadumen, Gomer, Zevs kabi ko'plab bosh haykallar yetishmaydi.
5. Insonning psixologik portretini tasvirlay olish uchun talabalardan o'ziga xos tayyorgarlik, bilim, malaka va ko'nikma talab etiladi. Buning uchun esa bosh skeleti, anatomik "Ekorshe" bosh namunalari yetarli emas.

Inson boshining murakkab shakllarini to'g'ri tasvirlay olish narsaning o'ziga qarab haqqoniy rasm chizish mashqlariga asoslangan. Bu esa antik davrga mansub gipsdan yasalgan Dovud bosh bo'laklarini (ko'z, burun, lab, quloq) o'ziga qarab tasvirlash orqali boshning gipsdan yasalgan kesik shakli namunasini chizishdan boshlanadi. Undan keyin esa, portretni o'ziga qarab tasvirlash mashqlari vositasida amalga oshiriladi.[1]

Inson portreti qalamtasvirini chizishga o'tishdan avval talabalar uning anatomik tuzilishi, boshning asosiy qism va bo'laklari, ularning bir-biriga tutashishini mukammal bilishlari shart. Sodda shakllarga keltirilgan uslub qog'oz yuzasida bosh shaklining ham umumiy ham tarkibiy qismlarini to'g'ri tasvirlay olishlariga yordam beradi. Bu usul talabalarning diqqat e'tiborini tashqi bo'laklar (qoshlar, kipriklar va h.k.) ga emas, boshning asosiy shakliga qaratish imkonini beradi. Buni tushunib olish oson tuyulsa-da, lekin talaba uchun uni tasvirda ko'rsata olish ancha murakkab ishdir. Bizningcha, bosh shaklini tasvirlashda "Chiziqli konstruktiv qurish" usulni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. "Chiziqli konstruktiv tuzilish asosida bajarilgan ish akademik rasm ishlashning ajralmas qismi hisoblanadi. Bunda rassom shaklni hajmdor tarzda tasvirlashga erishadi. Chiziqli konstruktiv tuzilish asosida bajarilgan ishning ijobiy tomoni shundan iboratki, chizuvchi shaklni hajmdor qilib tasvirlash bilan bir qatorda plastik anatomiya,

[1] Boymetov B. Portret qalamtasviri. – T., Nizomiy nomidagi TDPU. 2000. – 4-8 b.

perspektiva kabi fanlarni ham puxta oʻzlashtiradi. Murakkab bosh shaklidagi tushuvch shaxsiy soyalarning qonuniyatlarini oʻzlashtirib oladi".[2]

Qalam tasvirda katta shaklni tahlil qilish va ifodalash usulini egallash talabaga ta vir tuzishning natijalarini oldindan koʻra bilish, ya'ni uning ishlayotgan tasviri oxir-oc batda qanday koʻrinish kasb etishini oldindan tasavvur etish tajribasini beradi. Oʻqu akademik rasm chizish jarayoni kasbiy mahoratning mustahkam poydevorlarini quris va boʻlajak pedagog rassomni tarbiyalashda muhim bosqich hisoblanadi. Shu mun sabat bilan yosh rassomning diqqat e'tiborini yana bir jihatga qaratish zarur. Ba'zi t labalar ishning alohida bosqichlarini tahlil qilib rasm ustida ishlashning unchalik toʻg boʻlmagan uslubiyotini "ixtiro" qiladilar. Ishning bitta bosqichini bajarib (chiziqli-kons ruktiv tasvirini), undan keyin bu ishga qaytmaydilar va rasmga hech qanday tuzatishl kiritmaydilar. Vaholanki, tasvir qurishning butun uzluksiz davomli jarayoni takomill shib borgan sari aniq ifoda kasb eta borishi kerak.[3]

Ma'lumki, bu vazifani 2 kurs dasturi asosida chizishga oʻrgatish jarayonida talaba lar boshlangʻich malakaga ega boʻladilar. Chunki ushbu gipsdan ishlangan boshnir namunasi ham odam qiyofasining tashqi tomonini, ham uning ichki mohiyatini sinchi lab oʻrganishga yoʻnaltirilganligi bilan ajralib turadi. Fransuz olimi, haykaltarosh Ja Antuan Gudon tomonidan yaratilgan va boshlovchi rassomlar uchun tavsiya etilga "Ekorshe" anatomik gips bosh namunasini chizish mashqlari dastlab uni chizishga cha oʻrganilgan "bosh suyagi" tasviri hamda odamning gisdan ishlangan kesik sath bosh namunasi tasviri vazifalari bilan chambarchas bogʻliqdir. "Kesib ishlash" usulida foydalanib tasvirlashda rasm chizuvchida eng asosiy narsani koʻra bilish, koʻringa narsani mantiqan idrok etish va boshning plastik obrazini ochiq tasavvur etish mala kasini orttiradi. Agar yosh rassom boshning shakl xususiyatlarini idrok eta olmasa v tasavvur qilmasa, faqat oʻz tuygʻulari bilan cheklanib qoladi. Bunday holda u naturada "passiv" tarzda nusxa koʻchirishga, tashqi koʻrinishni shundayligicha oʻxshatib qoʻy qolishga majbur boʻladi.[4]

"Kesik bosh" shaklining tasvirini bajarish mashqlari ham barcha oʻquv vazifalari tasvirlashdagi metodik izchillikka asoslanadi. Ular quyidagilardan iborat.

1. Kesik bosh modelini turli nuqtalardan kuzatib, qalamchizgilar bajarish va en ma'qul joyni tanlab olish va naturani kompozitsiya jihatidan qogʻoz sathiga toʻgʻri joy lashtirish.

2. Tanlangan nuqtadan naturani geometrik shakllarga qiyoslash orqali "chizic konstruktiv" qurish.

3. "Chiziqli konstruktiv" qurish qonuni asosida topilgan shakllarning bir-biriga nis batlarini toʻgʻri aniqlab, dastlabki yorugʻ soyalar berish.

4. Yorugʻ-soya munosabatlarini aniqlash, shaxsiy, tushuvchi, yarim soya va aks yorugʻliklarini belgilash, shaklning fazoda haqqoniy koʻrinishiga erishish hamda vaz faga yakun yasash.

Talaba bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirgandan soʻng Gudonning "Eko she" anatomik bosh modelini chizishga oʻtishi mumkin. Albatta, bu olingan tajribala mustaqil soatlarda yanada mustahkamlanib boriladi. Bunda talabalar uyda oynag

---

[2] Кузько В.М. Рисунок головы человека с гипсовых слепков. Учебно-методическое пособи Ханты-Мансийск. 2013. – С. 5.

[3] Boymetov B. Portret qalamtasviri. – T., Nizomiy nomidagi TDPU. 2000. – 13 b.

[4] Boymetov B. Qalamtasvir. Oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: "Musiqa" nashriyo 2006 yil. – 91 b.

qarab o‘z avtoportretlarini chizib ko‘rishlari tavsiya etiladi. Tasvirlashda asosan yuz qismidagi asosiy katta tekisliklarga e’tibor berib, mayda bo‘laklarga umumiy tarzda qaratishlari kerak bo‘ladi. Ayniqsa, yuz qismi muskullari sinchiklab kuzatilmog‘i, ularning inson hayotidagi o‘rnini, vazifasini aniqlab borishni doimiy odat tusiga aylantirmog‘i lozim bo‘ladi. Yuqori jag‘ suyagi yuz sirtining qattiq asosi sifatida xizmat qiladigan juft suyak bo‘lib, ko‘zlar bilan og‘iz orasida joylashgan. Yuqori tomonda suyak yuzasi ko‘z kosasi ichiga qayrilib, uning pastki devorini hosil qiladi; ichki tomondan yuqoriga ko‘tarilib chiqadigan peshona o‘simtasi peshona suyagi bilan qo‘shilib ketadi. O‘ng va chap peshona o‘simtalari juft holdagi ikkita burun suyakchalari uchun tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Yorug‘-soya munosabatlariga e’tibor bermagan holda, qo‘yilgan naturani asosan chiziqlar yordamida konstruktiv ko‘rinishini tasvirlash ta’kidlab o‘tiladi. Bu jarayon tugagach talabalar ishlari yig‘ishtirib olinadi. Bosh namunasi ham auditoriyadan olib chiqib ketiladi va uning o‘rniga “Kesik sathli bosh namunasi” hamda “Bosh suyagi” yonma-yon joylashtirilib qo‘yiladi. Talabalarga esa shu namunalarga qarab tasavvur asosida va yodda qolgan anatomik bosh tasvirini ikki soat mobaynida chizib berish vazifasi topshiriladi. Talabalar gips bosh namunasini ko‘z oldilariga keltirib, xayoli va tasavvur asosida qo‘yilgan namunalarni tasvirlashda olgan bilim, malaka va ko‘nikmalardan foydalangan holda vazifani bajaradilar. Ularning dastlabki kursda olgan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalari hamda mustaqil ijodiy faoliyati samarasi mahsullarini amaliy vazifalarni muvafaqqiyat bilan bajarganliklarida ko‘rish mumkin. Bu jarayonda talabalar o‘zlarining amaliy ijodiy ishlash qobiliyatlari qanchalik darajada ekanligini ko‘rsata oladilar. Bunday tajriba natijasi shularni ko‘rsatadiki, akademik guruhdagi sakson foizdan ortiq talabalar bosh shakllarni tasviriy san’atning barcha qonunlarini qo‘llagan holda o‘lcham va nisbatlarda tasvirlay oladilar.

Mashg‘ulot so‘nggida avval namunaga qarab ishlangan ishlar yonma-yon qo‘yilib o‘qituvchi tomonidan har bir ish talabalar ko‘z o‘ngida tahlil qilinadi, yutuq va kamchiliklar ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, talabalardan “Ekorshe” anatomik bosh namunasining suyak tizimi, muskullar tuzilishi va ushbu qismlarning qanday atalishi, inson bosh suyagi va muskullarining hayotdagi vazifalari va ahamiyati haqida savollar berilishi kerak. Mashg‘ulotlarni bunday uslubda tashkil qilish talabalarda mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqishlarini oshirib, bo‘lajak pedagog rassomlarning kasbiy faoliyatlarida muhim o‘rin tutadigan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlab, tasavvurda ishlay olish qobiliyatlarini o‘stirishiga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Boymetov B. Plastik anatomiya. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. –T.: Ilm ziyo nashriyoti, 2017 yil. 3-qayta nashri. – 87 b.*
2. *Boymetov B. Portret qalamtasviri. – T., Nizomiy nomidagi TDPU. 2000. – 4-8 b.*
3. *Boymetov B. Portret qalamtasviri. – T., Nizomiy nomidagi TDPU. 2000. – 13 b.*
4. *Boymetov B. Qalam tasvir. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: Musiqa nashriyoti, 2006 yil. – 91 b.*
5. *Кузько В.М. Рисунок головы человека с гипсовых слепков. Учебно-методическое пособие. Ханты-Мансийск. 2013. – С. 5.*

**Bosh muharrir:**
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

**Bosh muharrir o'rinbosari v.v.b:**
Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

**Mas'ul kotib:**
Pardayev To'lqin Xasan o'g'li

**Bosh dizayner – badiiy muharrir:**
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

**Tahrir hay'ati:**
Sherzod SHERMATOV, Risboy JO'RAYEV,
Komiljon MUQIMOV, Ulug'bek INOYATOV, G'ayrat SHOUMAROV,
Hikmatilla RASHIDOV, Shavkat SHARIPOV, Maqsudjon YULDASHEV,
Oynisa MUSURMONOVA, Xolboy IBRAGIMOV,
Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV.

**Jamoatchilik kengashi:**
Dilshod KENJAYEV, Nargiza RAXMANKULOVA, Shaxnoza XALILOVA,
Muhammadjon QURONOV, Islom ZOKIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko'chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

"ECO TEXTILE PRODUCT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent shahri, Учтепа тумани 23 мавзе, Катта Ҳирмонтепа ва Ширин кўчалари чорраҳаси кесишмаси

Bosishga ruxsat etildi: 25.06.2020-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/8. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 18,0. Adadi 4 000 nusxa. 154/C buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

© "Xalq ta'limi" jurnali, 2020.